FALSAFA

UDK: 316.77:316:02 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a22**

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA EHTIYOJ VA MANFAATLARNI TADQIQ ETISHNING MUHIM JIHATLARI

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПОТРЕБНОСТЕЙ И ИНТЕРСОВ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

MAIN ASPECTS OF RESEARCHING NEEDS AND INTERESTS IN THE INFORMATION SOCIETY

[1]Yuldashev Farrux Abduraxmanovich

[1]Farg‘ona davlat universiteti falsafa kafedrasi o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya

Maqolada axborotlashgan jamiyatda inson ehtiyoj va manfaatlarini yuzaga kelishi, uning muhim jihatlari, omillari, maqsadi va mohiyati yoritilgan. Tatqiqot metodlari: Dialektik, analiz va sintez, tarixiylik, kuzatish. Tadqiqot natijalari: Mavzuni o‘rganish davomida ehtiyoj va manfaat tushunchalarini olimlarning izlanishlari va lug‘atlarda ta’riflanishi o‘zaro solishtirildi. Axborot makonida yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashdagi ziddiyatlar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlili xulosa sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Аннотация

В статье описано возникновение потребностей и интересов человека в информационном обществе, его важные аспекты, факторы, цель и сущность. Методы исследования: диалектика, анализ и синтез, историчность, наблюдение. Результаты исследования: в ходе изучения темы сопоставлены определения понятий потребности и интересы в исследованиях ученых и в словарях. В качестве вывода приведен социально-философский анализ конфликтов в обеспечении потребностей и интересов молодежи в информационном пространстве

Abstract

The article describes the emergence of human needs and interests in the information society, its important aspects, factors, purpose and essence. Research methods: Dialectics, analysis and synthesis, historicity, observation. Research results: During the study of the topic, the definitions of the concepts of needs and interests in the research of scientists and in dictionaries were compared. As a conclusion, a socio-philosophical analysis of conflicts in meeting the needs and interests of young people in the information space is given.

Kalit so‘zlar: *axborot, jamiyat, shaxs, ehtiyoj, manfaat, maqsad, ilm-fan, taraqqiyot, globallashuv, qadriyat, tafakkur, zaruriyat.*

Ключевые слова: *информация, общество, человек, потребность, интерес, цель, наука, прогресс, глобализация, ценность, мышление, необходимость*

Key words: *information, society, person, need, interest, goal, science, progress, globalization, value, thinking, necessity.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv asri ijtimoiy unifikatsiya jarayonlarini tezlashtirib yubormoqda. Axborotlashgan jamiyat mehnat tejamkorligini oshirish bilan birga, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini yo‘qotgan, o‘z maqsadi yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor avlodni paydo bo‘lishiga asos bo‘lmoqda. Ijtimoiy faoliyatda ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligini to‘g‘ri anglamaydigan, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini mushtarak ko‘rmaydigan yoshlarni birdamlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash masalalari zaruratga aylanmoqda. Natijada, dunyoda yoshlar ijtimoiy faoliyatida ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashning falsafiy jihatlarini tadqiq etish ham dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan ezgu g‘oya asosida olib borilayotganligi ham jamiyatda o‘zgarishlar, islohotlar jarayoni boshlanganligini ko‘rsatib beradi. Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichi demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan insonparvar yetuk jamiyat qurishga qaratilgan. Mazkur jarayonda yuksak maqsadlarga erishish asosida yoshlar mehnat faoliyatini to‘g‘ri va samarali tashkil qilish dolzarb vazifalardan biridir. Zero, «Yoshlar tarbiyasini to‘g‘ri va ilmiy asosda yo‘lga qo‘ymasdan turib, xotirjam bo‘lishga hech kimning haqqi yo‘q. Chunki, bu masala biz uchun hayot-mamot masalasidir. Buni chuqur anglagan holda yangi o‘quv yilidan boshlab, barcha maktablarda alohida tarbiya darslari»[1] yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimizda davom etayotgan demokratik islohotlar va modernizatsiyalashuv jarayonlari inson manfaatlariga, ijtimoiy - siyosiy harakati va umuman turmush tarziga qaratilgan bo‘lib, islohotlardan

ko‘zlangan maqsad yoshlar siyosati, ularning ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlash bilan uyg‘un ravishda olib borilmoqda.

Bugunga kunda jamiyat hayoti tubdan o‘zgarib, inson faoliyati davlat va jamiyat birgalikda bir butun jism sifatida taraqqiy etadi. Ushbu jarayonda insonning o‘ziga xos roli mavjuddir. Inson hayotda komillikka intilib, bilim va ma’rifatli, ma’naviyati yuksak, axloqiy jihatdan shakllangan, o‘z ongi va dunyoqarashiga ega bo‘lsa, jamiyat barqarorligiga erishish mumkin. Bu o‘z navbatida jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy jihatdan taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi. Davlatimizda islohotlar, munosabatlar yangicha qarashlar orqali zamonaviy yondashuvlar, dunyoqarash va fikrlarni o‘zgartirmoqda. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning islohotchilik siyosati ushbu jarayonlarga ijobiy ta’sir etib, O‘zbekiston taraqqiyotning milliy yuksalish bosqichiga olib chiqdi. Inson hayotda baxtli yashashi uchun unga har tomonlama e’tibor zarur bo‘lib, bunda birinchi navbatda insonning muammolari, extiyoj va manfaatlari, turmush sharoitini yaxshilash, farovon hayot uchun imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Aynan ushbu masalalarga bugungi kunda davlat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Hususan prezidentimizning yurtimizda baxtli xonadonlar safini ko‘paytirishga qaratilgan “Temir daftar”, Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” – bu “mening xalqim orasida birorta kambag‘al bo‘lmasligi kerak”[2] degan shior bilan inson qalbiga kirib borishga e’tibor qaratmoqda.

Tadqiqotning maqsadi Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligining konseptual asoslari, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish;
- axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash, aksiologik yondashuv doirasida rivojlantirish mexanizmlarini ochib berish;
- jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida extiyoj va manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashda praksiologik tafakkurni shakllantirish yo‘llarini asoslash;
- axborot kurashi makonida ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashdagi ziddiyatlar, jamiyatni zamonaviylashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida ehtiyoj va manfaatlar mushtarakligini ta’minlash yo‘llarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatimizning barcha sohalarida ijodiy fikrlaydigan, yuqori texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirgan yoshlarga ehtiyoj yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega, kreativ fikrlaydigan, yangilikka intiluvchan yosh avlodni malakali mutaxassis etib tayyorlash uchun ta’lim, ilm-fan sohasida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yoshlarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish maqsadida ta’lim islohotlari amalga oshirib kelinmoqda. Inson ehtiyojlarini umumnazariy tahlil etish ularning tabiiy va ijtimoiy ko‘rinishlari, shu bilan birga, yana tabiiy-ijtimoiy turlarga bo‘linishidan qat’iy nazar, dixotomik chegaralanishga asoslanadi. Bunday tahlilda turlicha moddiy va ma’naviy ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlar bo‘lib ko‘zga tashlanishi, bularga iqtisodiy, axloqiy, intellektual, estetik, siyosiy va boshqa ehtiyojlar kiritilishi mumkin.Ta’kidlash kerakki inson ehtiyoji muttasil ravishda o‘sib, o‘zgarib, takomllashib boruvchi xodisadir. Jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlari taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida tarixiy jarayonning yo‘nalishini belgilaydi. Ehtiyoj qanday shaklda rivojlanmasin, muayyan bir xalq yoki millat mentalitetining tub ildizlarini, ularning umummilliy manfaatlarini o‘zida ifoda etadi. Ehtiyojlarni tasnif etish muammosi ularning tabiati, mazmundorligini tavsiflash to‘g‘risidagi masalaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Falsafiy tadqiqotlarda ijtimoiy ehtiyojlarni alohida guruhga ajratish faqat terminologik noaniqliklarni emas, shu bilan birga, ularning asosiy xususiyatlarini aniqlab olishni ham taqozo etadi. Biroq bu ikki masala adabiyotlarda o‘zining to‘la yechimini topgan emas. Ehtiyojlar: tushuncha yoki voqelikning ma’lum bir tomoni (nafaqat odamga, balki jamiyatga ham xosdir). Ehtiyojlar tufayli inson va jamiyat obyektiv o‘zaro bir-biriga bog‘liqdir. «ehtiyoj insonning tabiiy, jismoniy, ruhiy, moddiy-iqtisodiy, huquqiy-mafkuraviy hamda ma’naviy talablari majmuidir»[3]. Agar e’tibor berilsa, bu ikki ta’rif mazmunan bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Faylasuf olim O‘.Abilov fikricha, ehtiyojni shakllantirishda eng muhim omil mehnat faoliyati mahsulotlaridir[4]. Shu sababli ham ehtiyojlar uning ijtimoiy faolligi manbai hisoblanadi. Falsafiy jihatdan ehtiyojning qondirilish zaruriyati asosida subyektni hayotiy faoliyatga da’vat etuvchi botiniy sabab, jamiki tirik jonzotning muhim tashqi shart-sharoitlarga tanlab, faol munosabatda bo‘lishining birlamchi shaklidir. Ehtiyojlar sohibi, ifodachisi

sifatida uning subyektini har qanday biologik jonzot, inson individi, kishilar birligining tarixiy uyushmalari (oila, urug‘, qabila, xalq), ijtimoiy birliklar (sinf, tabaqa, millat, xalq), ijtimoiy tizim va muassasalar (ta’lim tizimi, davlat va uning tashkilotlari) kabilar tashkil etishi mumkin. Demak falsafiy jihatdan tadqiq etish orqali ehtiyojlarni quyidagicha bo‘lish mumkin[5]:

1) namoyon bo‘lish sohalari bo‘yicha - moddiy va ma’naviy;
2) kelib chiqishi bo‘yicha - tabiiy (biologik) va ijtimoiy;
3) tashuvchi tomonidan - individual, sinf, millat, insoniyat;
4) faoliyat turi bo‘yicha - kognitiv, siyosiy va boshqalar;
5) faoliyat tabiati bo‘yicha - samarali (ijodiy) va reproduktiv

Bu yondashuvlarning barchasi ko‘rib chiqishdan tubdan farq qiladi. Muammo haqidagi g‘oyalarni umumlashtirish sifatida ehtiyoj va qobiliyat, o‘z g‘oyalarini amaliyot bilan doimiy ravishda bog‘lab turadi.

Ehtiyojlarni falsafiy tahlil qilishning natijasi shuni ko‘rsatadiki falsafa, asosan, mulohaza yuritish bilan chegaralanib qolmaydi, balki mavjud, tayyor ehtiyojlar mexanizmi, zarur ehtiyojlarning turli tomonlarini, ularning mohiyatini tushunishga qaratiladi. Manfaatlar haqida so‘z borganda har bir kishi o‘z shaxsiy manfaatiga, oila a’zosi sifatida oilaviy, mehnat qilayotgan jamoasi miqyosida manfaatga, yashayotgan yurtida shu yurtning fuqarosi, jamiyat a’zosi sifatida manfaatga ega deb aytish mumkin. O‘zbekiston ham o‘z xalqining manfaatlarini ta’minlash yo‘lida jadallik bilan bormoqda. Zero, «biz taraqqiyotimizning yangi davri, yangi bosqichiga qadam qo‘ydik. Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari jarayonida belgilangan vazifalarni bajarishga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etdik»[6]. Manfaat tushunchasi serqirra kategoriya bo‘lib, shaxsiy, urug‘chilik, mahalliychilik, mintaqaviy, etnik, milliy hamda umuminsoniy manfaat shakllarida namoyon bo‘ladi. Manfaatlarning turli-tumanligi sababidan kelib chiqib, bu tushunchani mohiyatini aniqlash lozimdir. Jumladan, falsafa qisqacha izohli lug‘atida: «Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababidir, manfaat faoliyatni keltirib chiqarib qolmay, uning yo‘nalishi, vosita va shakllari, maqsadini ham belgilab beradi» deb ta’kidlangan.

Har bir yoshning inson sifatidagi ehtiyojlari ham mavjud. Uning ehtiyoji jamiyatda tutgan o‘rni, uning shaxsiy manfaatini yuzaga keltiradi. Buning uchun shaxs o‘z oilasida yashaydi, jamoada mehnat qiladi. Qolaversa, har bir inson o‘z yurtining fuqarosi sifatida umumdavlat manfaatini ifodalaydi. Umumdavlat manfaati butun xalq maqsadining umumiyligidan dalolat beradi. Insonlar uchun shunday umumbashariy qadriyatlar mavjudki, ular umumiy manfaat tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, tarixiy yodgorliklarni asrash va boshqalar umumiy manfaatlar sirasiga kiradi. Manfaatlarning xususiyligi har bir subyektning o‘z manfaati mavjudligidan kelib chiqadi. Bu manfaat aynan uning maqsadini ifodalaydi, boshqalarning manfaatidan ajralib turadi hamda boshqalarning manfaatlariga mos tushavermaydi.

Shaxsiy manfaat va inson manfaati mazmunan va maqsadlari bilan farq qiladi. «Shaxsiy manfaatlarda namoyon bo‘lish ko‘lami tor bo‘ladi, ya’ni shaxsni o‘zini ehtiyojlariga qaratiladi. Shaxs manfaatlari esa keng ma’noda namoyon bo‘lib, oila, jamoa, maxalla va boshqa shaxslar umuman jamiyat, davlat manfaatlari bilan bog‘lanib bir tizimni tashkil etadi»[7]. Manfaatlar tipologiyasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar tahlili alohida ahamiyatga ega. Individ manfaatlari ma’lum ijtimoiy muhitda vujudga keladi, shaxs ichki dunyosiga taalluqli bo‘ladi. Ehtiyojlarga monand kelgan holda shaxs xatti-harakatini, faoliyatini yo‘naltiruvchi omil tarzida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda shaxs o‘z manfaatini ro‘yobga chiqarish maqsadida qilgan xatti-harakati oqibati o‘laroq ijtimoiy muhit mazmuniga faol ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, jamiyat unda yashayotgan va faoliyat qilayotgan individlar majmuasidir. Shu o‘rinda bir fikrni aytishni shart deb o‘ylaymiz. Jamiyatning asosini unda yashayotgan shaxslarning mavjudlik majmuasi belgilaydi. Lekin shu bilan bir qatorda muayyan ijtimoiy amaliyotda faoliyat qilayotgan individlar o‘z xatti-harakati ko‘lami bilan birdaniga va to‘la qamrab ololmagan va ololmaydigan o‘tmish avlodlar tajribasi, jamiyat urf-odati va an’analari, mafkura va ma’naviyat meyorlari mavjud bo‘ladi. Bular ijtimoiy jarayon jabhalaridir. Individ sekin asta o‘z shaxsiy manfaatiga moslab qobiliyati, malakasi va ma’lumotidan kelib chiqqan holda muhitga munosabat bildirib boradi. Shaxs manfaatining shakllanishi, namoyon bo‘lishi hamda jamiyat jarayonlarida joriy qilinib, ro‘yobga chiqishi ko‘p jihatdan shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liq. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, hozirda shaxsning ijtimoiylashuvi keng amalga oshayotgan bir davrda shaxs erki kategoriyasi tadqiqi manfaatlilik qonuniyatlari va tamoyillariga asoslanishini talab qilmokda. Ijtimoiy hayotda manfaatlar mushtarakligiga aynan shu yo‘nalish orqali erishish mumkin. Axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va

iste'mol etiladi, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, "axborotlashgan jamiyat – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir"[8]. M.Yoqubovaning fikricha, axborotlashgan jamiyat texnogen sivilizatsiya rivojlanishining muayyan bosqichidir, axborotlashgan jamiyatda bilim, axborot va axborot texnikasi asosiy rol o'ynaydi. Ya'ni, axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborot ishlab chiqish, unga ishlov berish, uni saqlash va jamiyat a'zolari orasida tarqatishga bog'liq bo'ladi[9]. Akademik S.G'ulomov fikricha, "axborotlashgan jamiyat – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatidir"[10]. Darhaqiqat axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi o'zgaradi, moddiy boyliklarga nisbatan madaniy dam olish sifatida qarashning ahamiyati ortadi. Demak adabiyotlar va mualliflarning tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki, ehtiyojlar — organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan narsalarga talab, muhtojlikdir. Ehtiyojlar subyekt bilan uning faoliyati o'rtasidagi bog'lanishlarni ifoda etadi va maqsadlar, mayllar, intilishlar, hatti harakatlar, fe'l atvorda yuzaga chiqadi. Ehtiyojlarning umumiy qonuniyati — ularning umuman bevosita inson faoliyatiga, xususan, ijtimoiy ishlab chiqarishga bog'liq bo'lishidir. Ayni payda faollikka undovchi kuch bo'lgan Ehtiyojlar, o'z navbatida, hayot sharoitlariga tanlama ta'sir ko'rsatadi, ularning o'ziga xos tomonlarini belgilaydi, u yoki bu faoliyat usullarini va Ehtiyojlarni qondiradigan predmetlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Masalan, bir vaqtlar kishilarda avtomobilga paydo bo'lgan Ehtiyojlar ularni yaratish yo'lida izlanishlarning boshlanishiga sabab bo'ldi va butun bir sanoat tarmog'ining paydo bo'lishiga olib keldi. Tarixan Ehtiyojlar o'sib boradi, ular xilma xil, o'zgaruvchan, tuzilmaviy o'zgarishlarga uchrab turadi. Ehtiyojlar tizimida iqtisodiy ehtiyojlar asosiy o'rinda turadi. Ularga birinchi navbatda, moddiy ashyoviy Ehtiyojlar (moddiy va ma'naviy) — oziq-ovqat mahsulotlariga, kiyim kechak, axborot vositalari (gazeta, kitob va boshqalar)ga Ehtiyojlar, shuningdek, iqtisodiy Ehtiyojlar tuzilmasida oliy o'rinda turadigan mehnat qilish, ta'lim olish, sog'liqni saqlash kiradi. Iqtisodiy Ehtiyojlarni ham ularni ro'yobga chiqaradigan subyektlariga qarab tasniflash mumkin (shaxsiy — yakka, jamoa va ijtimoiy — umumiy Ehtiyojlar). Bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy Ehtiyojlar pul bilan vositalanadi va talab sifatida yuzaga chiqadi (q. Talab va shaklif). Ishlab chiqarish va Ehtiyojlar o'rtasidagi teran ichki bog'lanishlar ehtiyojlarning o'sib borishi qonunida o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyotning butun tarixini eng oddiy Ehtiyojlardan tobora har tomonlama rivojlangan inson Ehtiyojlarining shakllanishiga o'tish tarixi tarzida qarash mumkin. Maqsad (falsafada) — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta'riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lsa, Maqsad faoliyat yo'nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga subyektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta'sir o'tkazadi. Maqsadning real va noreal, qisqa muddatli va uzoq muddatga mo'ljallangan, asosiy va ikkinchi darajali va b. turlari bor. Real Maqsadlar subyektning imkoniyatlari, atrof muhitning holati va obyektiv qonuniyatlarni hisobga olsa, noreal Maqsadlar faqatgina subyektning orzu-istaklarini ifodalaydi, atrofdagi vaziyatni hisobga olmaydi.

NATIJA VA MUXOKAMA

Tadqiqodimizni o'rganish davomida ehtiyoj va manfaat masalasi murakkab jarayon hisoblanadi, ya'ni inson manfaatlarining kengayib borishida faqat xohishgina yetarli emas, o'zining faoliyatini jamiyatning dolzarb muammolariga qaratishi, ularni muntazam ravishda kuzatishi, o'rganishi va tegishli xulosa chiqarishi uchun yetarli bilim va hayotiy tajribaga erishgan bo'lishi lozimligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan ma'naviy ehtiyojlar insonning fiziologik, moddiy, siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlarini tarbiyalaydi, tartibga soladi va ularning yuksalishiga zamin yaratadi. Insonning tub mohiyati esa shundaki, u xar qanday sharoitda ma'naviy-ma'rifiy masalalar bilan shug'ullanishga harakat qiladi, ya'ni bilimi, madaniyati, odob-axloqi, estetik qarashlarini yuksaltirishga intiladi, va uni ma'naviy hayoti yangi g'oyalar bilan boyib boradi. Mazkur faoliyat ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarni namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Insonning jamiyatda o'ziga hos ijtimoiy mo'ljallari bo'lib, o'z faoliyatida ko'pchilikning maqsad va manfaatlarini mujassam etadi, natijada inson yakka shaxs qadriyati doirasidan chiqib, umummilliy qadriyatga aylanadi. Aql-zakovat, chuqur tafakkur, mantiqiy mushohada, intellektual

salohiyat kabi mo‘jizaviy hayot ehtiyojlari hamda aql doirasidagi keng imkoniyatlari asosida jamiyatda yashaydi, taraqqiyotga hissa qo‘shadi. Insondagi ichki ruhiy kuch-qudrat, rag‘bat, intilish va hissiyot donishmandlikni rivojlantiradi va inson istiqbolini belgilovchi omil hisoblanadi. Insondagi ehtiyojlarni o‘rganishda ma’naviy ehtiyoj ta’sirini kuchaytirish zarur. Bunda birinchi navbatda ma’naviy kamolot natijasiga e’tibor qaratish muhim. Ma’lumki ma’naviyat iymon-e’tiqoddan boshlanadi, so‘ngra ilm-ma’rifat bilan mukamallashadi. Shaxsning ma’naviy kamolot darajasi uning axloqida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun bugungi kunda yoshlarni xulqi, axloqi, ma’naviy hayotiga e’tiborni kuchaytirish talab etiladi. Inson va shaxsning jamiyatdagi o‘rni ularni mushtarak holda axloq qoidalari haqida bilim berishning o‘zi, uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo‘lmaydi. Unda iroda qudrati, mas’uliyat va majburiyat tuyg‘usini shakllantirish, inson qalbida borliq va tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o‘zga insonlarga mehr uyg‘otish, orzulari sof, beg‘ubor, maqsadlari ulug‘ bo‘lishiga erishish lozim. Har bir insonda vatan, millat, adolat tuyg‘ulari ma’naviy qadriyatga aylansagina taraqqiyot va barqarorlikka erishish mumkin. Albatta bunday natijaga yosh avlod tarbiyasida tinimsiz izlanishlar, xarakatlar bilan erishiladi. Mazkur masalalar hozirgi hayot bilan bog‘langan holda muntazam ravishda o‘z ifodasini topishi lozim. Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarda yoshlarni manfaatlarini inobatga olish va ularni ishtirok etish darajasiga qarab moddiy holda ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish, ularning faolligini o‘sib borishiga keng yo‘l ochib beradi. Ma’naviyat har qanday jamiyatni oynasi va darajasi sifatida shakllanadi, inson faoliyatiga esa ko‘maklashadi. Ma’lum bir masalaga yondashish, uni ochib berish va xususiyatlarini o‘rganishda boshqa insonlarga nisbatan qiyoslanadi, eng muhimi uning o‘zgarib borishi ko‘rsatiladi.

Insoniyat hayotida ma’naviyatni beqiyos imkoniyatlarini, inson tomonidan uni o‘zlashtirishda o‘zini ichki dunyosi bilan bog‘lashi, faoliyatini tarkibiy qismiga aylanishini taqozo etadi. Albatta, ushbu mas’uliyatli vazifa osonlikcha bajarilmaydi. Chunki shaxslar bir-biridan bilim, dunyoqarashi kabi fazilatlari bilan farq qiladi. Har qanday tadqiqot mazmuni, maqsad vazifalari asosida tashkil etiladi, ya’ni respublikada sodir bo‘layotgan iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un xolda o‘rganiladi. Inson ruhiy va aqliy olamini ifodalaydigan, shaxsning ideal bilimga intilish va ijtimoiylik yo‘lida faoliyat ko‘rsatishida asosiy omil hisoblangan ma’naviyatni yuksaltirish ham dolzarb vazifalar qatorida o‘rin egallaydi. «Ma’naviyat insoniylikka olib boradigan yo‘l bo‘lib, u kishilarning falsafiy, xuquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladigan tushunchadir»[11]. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston salohiyati xalqaro maydonda o‘sib bormoqda. Hozirgi davrda keng ko‘lamda tarqalgan internet tizimi yoshlarga rang-barang axborotlarni olish imkoniyatlarini bermoqda. O‘z navbatida yoshlarga murojaat qilsak, ularning dunyoqarashida ommaviy madaniyatni ta’siri bilinmoqda. Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatyaptiki, mazmunli, tarbiyaviy ahamiyatga yega bo‘lgan axborotlar bilan birgalikda yoshlar ongini chalg‘itadigan, ularni salbiy harakatlarga yo‘naltiradigan axborotlar ham tarqalmoqda. Ushbu holatni inobatga olgan holda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish ma’naviy merosni o‘zlshtirish, ularni yangi g‘oyalar bilan boyitib borish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan birgalikda ularni bilimini davr talablari asosida yuksaltirish vazifalari kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ta’kidlash joizki axborotlashgan jamiyatida bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi»[12]. Darhaqiqat, bugungi kunda bilim va axborotga asoslangan global axborotlashgan jamiyat shakllanmoqda. Axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste’mol etiladiki, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi.

Demak, axborotlashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotida muhim hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tabiat bilan insoniyat jamiyati o‘rtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining o‘zida o‘zaro axborot almashuvi mavjud bo‘lmaganda, u taraqqiy qilmagan va hozirgi mavjud kamolotiga erishmagan bo‘lardi. Hayot mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun moddiy vositalar kabi axborot ham zarur. Insoniyatning taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning hayotida axborot shuncha katta o‘rin egallaydi. Jamiyatning rivojlanishi hamda hayotning moddiy sharoitlarini ta’minlash, shuningdek, atrof muhitini va o‘zini ko‘proq o‘rganish bu faoliyatning yo‘naltiruvchi asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Kishilarning jamiyatdagi axlokiy xatti-xarkatlari, yurish turishlari, yashash koidalari, g‘oyalar va xissiyotlari, va ularni inson ongida aks etishi bevosita axlokiy ong, axlokiy madaniyatga bog‘liq. Axloqiy ong inson xarakteriga, tabiatiga singib, amaliy faoliyatda odob, bilim, e’tiqod, ixlos, vijdon va iymon kabi xislatlar asosida shakllanadi. Ma’naviyatning bu jihatlari birgalikda insonda ijtimoiy hayotning mohiyati va maqsadlari haqidagi muayyan dunyoqarash, mafkuraviy e’tiqodlar tizimini shaqllanishiga olib keladi. Axloq va odob bo‘lmasa, bilim, ilm, ijtimoiy foydali faoliyat ham

bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, axloq va odob ma’naviyatning mazmunini tashkil etadi. «Bugun ularni fundamental tarzda o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, yangi g‘oyalarni ilgari surish milliy taraqqiyotimiz va uning istiqboli uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lishni nazariy jihatdan asoslashga harakat qilamiz»[13]. Mazkur masalalar ham tezkorlik bilan bartaraf etilishi axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlar mushtarakligini ta’minlashga asos bo‘ladi. Qolaversa jamiyatda turli ma’naviy-marifiy tadbirlarga yoshlarni jalb etish faolligini ta’minlash uchun bir-biri bilan bog‘lanish vazifalari qo‘yiladi. Bunda rejalashtirilgan tadbirlar vaqtida va xususiyat to‘g‘risida izoh beriladi va psixologik tadbirlarga nisbatan jalb etish va amaliy jihatdan tayyorlash zarur bo‘ladi. Mazkur vazifalarni bajarishni murakkab jihatlari albatta inobatga olinadi ya’ni har qanday tadbir ishtirokchilardan faollik va tashabbuskorlikni talab yetadi[14]. Bunday fazilatlar esa har bir yosh insonda bo‘lavermaydi. Buning sabablaridan biri hozirgi davrdagi globallashuv o‘zgarishlar ayniqsa axborotlarni olish, uni tahlil qila bilishdir. Bugungi kunda, nafaqat O‘zbekistonda balki barcha mamlakatlarda internet tizimi aholini ko‘proq yoshlarni turmush tarzini tarkibiga shu tariqa kirib keldi[15]. Internet va raqamli televideniya yordamida yoshlar o‘zlariga xohlagan mavzuda axborotlarni olishmoqda. Internetga ortiqcha darajada berilib ketish internetomaniyaga olib kelmoqda. Albatta, internetga nisbatan bir tomonlama yondashmaslik zarur, chunki bu jarayon davr talabi va fan-texnika taraqqiyotini mahsuli sifatida faoliyat ko‘rsatadi[16]. Umuman olganda, bunday holatni inkor yetib bo‘lmaydi.

XULOSA

Ilmiy tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida internet xizmatidan ijobiy foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun axborotlarni yozishda, atroflicha tahlil qilinadi, ularni g‘oya va maqsadlari bo‘yicha saralanadi, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik kabi masalalarga doir mavzular asos qilib olinadi, o‘zlashtiriladi va targ‘ib qilinadi. Lekin, axborotlarni aksi bo‘lsa ya’ni ular yuqorida ko‘rsatilgan masalalarga zid bo‘lsa, yoshlar ongini chalg‘itish va xattoki zaharlashga qaratilgan ma’lumotlarga tanqidiy munosabat shakllanadi. Salbiy axborotlarga nisbatan yoshlarga birinchi navbatda g‘oyaviy va mafkuraviy immunitetni shakllantiriladi. Ushbu mas’uliyatli vazifani bajarishda milliy g‘oyani ahamiyati beqiyosdir, chunki, har bir inson faoliyatini avvalambor o‘zligini anglashdan, xalqimizni boy ma’naviy merosini o‘zlashtirishimiz buyuk allomalarni g‘oyalarini chuqur ma’nosini anglashlari, ularni hozirgi davr talablari bilan bog‘lash va amaliy harakatlarida qo‘llash zarur[17]. Shuning uchun har qanday sharoitda milliy g‘oyani maqsad va mazmuni yoshlarni faoliyatiga qaratiladi, chunki ularning dunyoqarashi, madaniyati, xulq-atvori va boshqa faoliyatlari avvalo milliy g‘oya asosida shakllanadi. O‘z navbatida mustahkam bilim va axborot madaniyatiga ega bo‘lgan bitiruvchilar barkamol avlodni o‘zagini tashkil etish, joylarda ularning manfaatlari birinchi galda bilimlarini hayotga tadbiq etish, yoshlarga fan yutuqlarini yetkazib borish, shaxsiy namuna va boshqalarga ibrat bo‘lish kabi vazifalarga e’tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М Янги Ўзбекистон стратегияси –Тошкент: “Ўзбекистон” 2021 йил. Б. 69.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2020. –Б 48.
3. “Янги Ўзбекистон” Ижтимоий-сиёсий газета. 2021 йил 30 октябрь 217- сон.
4. Мухторов А. Шахс тарбиясида миллий ғоя, эҳтиёж ва манфаатларнинг уйғунлиги. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2003. –Б.20.
5. Абилов Ў. Ўзбекистон тараққиётининг оптимистик руҳи.-Тошкент.: Истиқлол, 2003. –Б.30-31.
6. А.В.Олянич Презентационная теория дискурса. Монография. Волгоград “Парадигма” 2004. Стр. 23-24
7. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд.Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б. 416
8. Абдуллаев Т. Инсон манфаатларини ҳимоя қилишнинг устивор вазифалари ва йўналишлари. “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатларини ҳимоя қилиш давр талаби” Монография. Маънавий-маърифий нашр. Тошкент. 2017. Б-47.
9. Оила энциклапедияси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. –Б.171.
10. Ғаффарова Г.Ғ. Мураккаб тизимларда ахборот генерациясининг фалсафий-методологик асослари: Дисс.я фалс.ф.д. – Тошкент, 2019. –Б.185
11. Ғуломов С., Шермуҳамедов А., Бегалов Б. Ахборотлашган жамиятнинг мужассамланиши // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент, 1999. Январ - февраль - 7 б.
12. Ёқубова М.И. Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти. Дисс. Автореф. Фалс.фан.номз. – Т., 2006. –Б.10 б.

13. Ғуломов С., Шермухамедов А., Бегалов Б. Ахборотлашган жамиятнинг мужассамланиши // Ўзбекистонда иқтисодий ахборотномаси. – Т., 1999. январ-феврал, – 7-Б.

14. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. –Б. 265.

15. Yuldashev F A. Жамият Хаётида Инсон Эхтиёжларини Тадқиқ Этишнинг Фалсафий Жиҳатлари. SCIENTIFIC PROGRESS SCIENTIFIC JO URNAL VOLUME #2, ISSUE #8, DECEMBER 2021. –Б 51-56.

16. Ф.Юлдашев Жамият тараққиёти ва ёшлар эҳтиёж - манфаатларининг ўзаро уйғунлиги масаласига доир. Современные научные рещения актуальных проблем Москва. 2020 сентябрь –Б 75-77.

17. Yuldashev F.A. On the problem of studying human needs and benefits in the age of globalization and information. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси журнали Хива 2023 б- 130.